

TANQIDIY FIKRLASH TUSHUNCHASI VA MOHIYATI*Sevara Qayimova**O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi tanqidiy fikrlash va uning mohiyati, turlari hamda uni qanday o'rinlarda qo'llash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, feyk xabarlar, faktlar, kuzatish va to'g'ri baho berish

Абстрактный. В данной диссертации говорится о критическом мышлении и его сущности, видах и где его применять.

Ключевые слова: критическое мышление, фейковые новости, факты, наблюдательность и правильная оценка

Abstract. This dissertation talks about critical thinking and its essence, types and where to apply it.

Key words: critical thinking, fake news, facts, observation and judgment

KIRISH

Axborot asriga kelib biz bir kunda avvalgidan ko'ra anchagina ko'p ma'lumotlar va yangiliklarni qabul qilmoqdamiz. Ammo, ularning barchasi ham ishonchli emas. Ba'zi hollarda ularni haqiqiy axborotdan ajratishimiz qiyin kechadi. Mana shunday holatlarda biz tanqidiy yondashgan holatda uni tahlil qilib ko'rishimiz kerak bo'ladi. Xo'sh, shu o'rinda bizda savol tug'iladi. Nega aynan ommaviy axborot vositalarida olayotgan ma'lumotlarimizga tanqidiy yondashgan holda baho berishimiz lozim. Axir bizda axborotlarni feyk yoki haqiqiy ekanligi haqida ma'lumot beradigan tashkilotlar yoxud dasturlar mavjud emasmi ?!

O'ramizda tanqidiy fikrlash deganda faqat tanqid qilish, u borasida negativ fikrlash, yoki bo'lmasa to'g'ridan-tog'ri rad etish deb tushunadiganlar yo'q emas. Tanqidiy fikrlash bu kelayotgan axborotlarni to'g'ri, tasdiqlangan deb qabul qilmasdan, uni asosliligini tekshirib xulosa chiqarishdir. Biror hodisa yoki axborotni avval sodir bo'lganlik sababini o'rganib, tahlil qilganimizdan keyingina xulosa chiqarishimiz mumkin. Bunda axborotning birgina qismi bilan xulosalanib bo'lmaydi. Jarayonda axborot to'liq ko'rib chiqiladi, baholanadi va soxta yoki haqiqiyliги isbotlanadi. Bu orqali biz nafaqat sof axborotga ega bo'lamiz, balki, fikrlash doiramiz ham kengayib boraveradi.

Tanqidiy fikrlashning etimologiyasi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bundan 2500 yil oldin yunon faylasufi Suqrotning fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin. U dalil izlash, hukm va taxminlarni sinchiklab tekshirish, asosiy tushunchalarni tahlil qilish muhimligini ta'kidlab o'tgan.

Robert Ennis bu atamani o'z tadqiqotlarida shunday ta'riflaydi: “Tanqidiy fikrlash diqqat va miya faoliyatini talab qiladi. Agar tanqidiy fikrlash ta'lim sohasiga kiritilsa, bu usul o'quvchilarning miya faoliyatini oshiradi va matnlarni boshqacha tushunishga yordam beradi.”

Biz tanqidiy fikrlashda birinchi o'rinda kuzatishni bilish kerak. Kuzatish bu tanqidiy fikrlashning boshlang'ich nuqtasidir. Dastavval vaziyat yaxshilab o'rganiladi. Tegishli ma'lumotlar to'planadi. So'ngra muammo aniqlanadi. Unga to'g'ri baho berish orqali biz uni tahlil qilamiz, unga yechim izlaymiz. Xulosa qilayotganda ham aniq tahmin va faktlarga tayanish, diqqatli bo'lish muhim hisoblanadi. Shuningdek, boshqalar bilan og'zaki va yozma ravishda ma'lumotlar almashinish bu natijaga bir qadam yaqinlashishdir. So'ngida, kuzatishlar natijasida muammoga eng samarali yechim aniqlanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning besh bosqichi:

1. Muammoni yoki savolni aniqlang. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, avvalo, vaziyatni tog'ri baholash lozim. Muammoning sodir bo'lish sabablarini o'rganish kerak.
2. Tegishli ma'lumotlarni to'plang. Jarayon bilan uzviy bog'liq ma'lumotlar, faktlar va statistikalarini o'rganib chiqing.
3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash. Siz to'plagan manbalar qanchalik muhimligi aniqlang, ularni faktcheking qiling, ishonchliligiga amin bo'ling.
4. Muqobil nuqtai nazardan ko'rib chiqing. Bu tanqidiy fikrlash jarayonining eng foydali qismlaridan biridir. Siz masalaga real qaragan holda tahminlardan qochib aniq qaror qabul qilishingiz lozim.
5. Mantiqiy xulosa chiqarish. Bunda barcha jarayonlarni va sabablarni o'rgangan holda yakuniy fikrni bayon etish so'raladi. Tadqiqotlar natijasidan kelib chiqqan bir qancha asos va yechimlarni umumlashtirib qaror qabul qilish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda bir kunlik ma'lumotlar miqdori juda kattalashib bormoqda. Ularning barchasini ham passiv qabul qilmasdan, tanqidiy-tahliliy yondashib ko'rish afzaldir. To'g'ri, tanqidiy yondashuvda biroz uzoq vaqt talab qilinishi mumkin, ammo, unga noan'anaviy usulda yondashiladi. Bu juda ham qiziq hamda foydali. Yechim izlashda o'sha sohaga oid ko'nikmalarni kengaytirish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Ijodiy va ochiq fikrlash, e'tiborli bo'lish, savol berishda ham natijaga asoslangan savollarni qo'yish, shunga o'xshash vaziyatlarni kuzatish va tahlil qilish, muammolarni to'g'ri talqin etgan holda xulosalar chiqarish orqali ko'zlangan maqsadga erishish tez, samarali va natijali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ennis Robert H. qayerni nashri. (2015). “Critical Thinking”
2. Jennifer Herryty. 2024. Article. “5 Top Critical Thinking Skills (And How To Improve Them)”: <https://www.indeed.com/career-advice/career-development/critical-thinking-skills>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiyfikrlash>